

---

## TUMAN HOKIMI "YOYILMA" MFYDAGI JARAYONLAR BILAN TANISHDI

Rishton tumani hokimi Bahodirjon Xoliqov mahallalarda olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar, aholi turmush sharoitlari bilan tanishish maqsadida "Yoyılma" mahallasida bo'ldi.

"Yoyılma" mahallasida bo'lgan tuman hokimi mahalladagi "yettilik" - mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli va profilaktika inspektori, ijtimoiy xizmat xodimi, soliq inspeksiyai xodimining faoliyati bilan tanishdi.

Tuman hokimi mazkur mahallada yashovchi fuqarolar oilasi ehtiyoji uchun zarur bo'lgan daromadni qanday topayotganini xonadonbay o'rgandi.

Tomorgachilik yunalishi bo'yicha xonadon egalari bilan suhbat olib borgan tuman hokimi ularning daromadni oshirish uchun eksportbop mahsulotlar yetishtirish yuzasidan xonadon egalariga kerakli maslahatlarni berdi.

Shundan so'ng tuman hokimi ko'p tarmoqli tadbirkor Haydarali Ergashevni hovlisida tashkillangan limonariya va issiqxonasi bilan tanishdi.

2024-04-03 08:56:42